Российский университет Дружбы Народов
Инновационные подходы в современной науке

# CHET TILLARINI O‘QITISHDA INNOVATION YONDASHUVLAR

**Zarina Xojaboyeva**
***O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Roman-german filologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi***

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada bugungi kunda chet tilini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar va yangi axborot texnologiyalardan qo’llash masalasi tahlil qilingan. O’qtuvchining innovatsion faoliyati yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi vositalardan foydalanish tahlilini ko’rib chiqiladi.*

**Kalit so’zlar:** *internet, interaktivlik, kommunikativ, innovatsiya*

**Kirish:** So’nggi yillardagi ta’lim mazmuni, shakli, vosita va metodlarni yangilashga e’tibor berish, ta’limga oid innovatsiyalarni izlash uni ta’lim jarayoniga o’qtuvchilarning pedagogik faoliyatiga kiritib borish tizimining ahamiyati kattadir. Ayniqsa, o’quv ilg’or texnologiyalarni tatbiq qilish, innovatsiyalarni joriy etish, o’qtuvchilarni zamonaviy usullardan foydalantirish tizimi amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda ta’lim sifatini oshirish uchun zamonaviy innovatsiya va texnologiyalardan foydalanib kelinmoqda. Hozirgi tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnika shiddat bilan o’sib bormoqda. Umumiy qilib aytganda taraqqiyot ilgari qadam tashlamoqda. Xususan, ilm-fanda ham katta o’zgarishlar sezilarli yutuqlarga erishmoqda. Har bir chet tilini yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib talabalarga yetkazib berish bugungi kunda ta’limning asosiy talablaridan biridir. Eng avvalo, ta’lim jarayonida yangi yondashuvlar va texnologiya vositalarining qo’llanilishi bu ta’lim sifatini yanada oshiradi. O’quv amaliyotiga ilg’or innovatsiya va texnologiyalarni kiritish zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan ta’lim sohasida foydalanish o’quv jarayonini mazmunli tashkil etishga yordam beradi. O’qtuvchining samarali faoliyat olib borishida innovatsion yondashuv va texnik vositalar zarur. Pedagogik texnologiyaning qo’llanilishi, o’quvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta’lim maqsadiga erishishni ta’minlaydi. Internet resusrslardan foydalangan holda chet tillarini o’rgatishni asosiy talablaridan biridir. Bundan tashqari ta’lim sohasida qo’llanilayotgan yondashuvlarni ham kuzatishimiz mumkin. Masalan: “Kommunikativ yondashuv” muloqotni o’rgatish va internet faoliyatining asosi bo’lgan madaniyatlararo ta’sir o’tkazish qobilyatini shakllantirishni o’z ichiga oladi. Bu usulning yetakchi yo’nalishi aloqa hisoblanadi. Talabalar o’zlarining til qobilyatlari va ko’nikmalarini haqiqiy chet tillari bilan aloqa qilishda qo’llaydilar. Kommunikativ yondashuv talabalar va ta’lim berayotgan o’qituvchi tomonidan bo’lishi zarur. “Interaktivlik” – bu nutq vvositalari yordamida kommunikativ maqsad va natijadagi say-harakatlarni birlashtirish. Haqiqiy tilni o’rgatish orqali internet nutq qobilyatlari va ko’nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Bu usul talabalarni ta’lim jarayonida aktif qatnashishini rag’batlantiradi va

Российский университет Дружбы Народов
Инновационные подходы в современной науке

ularning o’zlashtirilgan bilimlarini amaliyotga tatbiq qilish imkonini beradi. Albatta, texnologiyalar asosida innovatsion yondashuvlarni qo’llash jarayonida kommunikatsiya vositalari, multimedia, gipermedia va interfaol doskalardan foydalaniladi. Chet tillarini o’rganishga talab yuqori bo’lgan bir pallada, ta’lim sohasida zamonaviy axborot texnologiyalardan unumli foydalanish bu jarayonni samarali bo’lishiga olib keladi. Innovatsion ta’lim texnologiyalarning samaradorligi ularning ta’lim jarayonida to’g’ri va unumli foydalanilganidadir. Darslarda innovatsion usullarni qo’’lash natijasida o’quvchilarning mantiqiy fikrlash qobilyatlari rivojlanadi. Chet tilini o’qitishda innovatsion texnologiyalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: ta’lim sistemasi, ta’lim vositasi, ta’lim prinsipi. Chet tili o’qitish deyilganda chet tili o’rgatishning amaliy, umumta’limiy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishishini ta’monlovchi muallim va o’quvchi faoliyatining majmuyi tushuniladi.

**Xulosa:** o’rnida shuni aytish joizki, chet tili o’qitishdagi ilg’or tajribalarni o’rganish va yoyishdan ko’zlanadigan maqsad ham ijobiy natijalarni qo’lga kiritish. Innovatsion yondashuv bu ta’lim samaradorligini oshirish uchun qo’llaniladigan hamda amaliyotning barcha sohalari bilan o’zaro uzviy bog’liq bo’lgan vositalar, yondashuvlar va g’oyalarning yagona majmuasidir. Innovatsion yondashuvlar ta’lim samaradorligiga erishishning asosiy shartidir.

## QO‘LLANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Jalolov J “ CHET TILI O’QITISH METODIKASI”
2. Tojiboyeva D, Yo’ldoshev A “ MAXSUS FANLARNI O’QITISH”
3. Asqarova M. G’ “ PEDAGOGIKA”
4. Ergashova D “ SO’NGGI ILMIY TADQIQOTLAR” 1 M.Xomdorova , N. Fayziyeva " Chet tillarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish"